

## O‘ZBEKISTON HUDUDIDA UCHRAYDIGAN ILONLAR TURLARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI, TARQALISH QONUNIYATLARI VA INSON HAYOTIDAGI AMALIY AHAMIYATI

*Farg‘ona davlat universiteti*  
*Zokirova Gulnora b.f.f.d (PhD)*  
*Komilova Mohigul*  
*Olimova Xurshida*  
*FarDU 1-kurs magistrantlari*

### ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda O‘zbekiston hududida uchraydigan ilon turlarining bioekologik xususiyatlari, ularning yashash muhiti, etologiyasi, tarqalish qonuniyatlari hamda inson hayotidagi amaliy ahamiyati yoritilgan. Respublikamiz hududining cho‘l, adir, tog‘ oldi va tog‘ mintaqalaridan iboratligi sudralib yuruvchilar, xususan ilonlarning turli ekologik guruhlari shakllanishiga imkon yaratgan. Tadqiqotda ilonlarning oziqlanishi, reproduktiv jarayoni, mavsumiy faolligi, geografik tarqalishi va tibbiyot hamda qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, ayrim turlarni muhofaza qilish zarurati ham asoslab berilgan.

### АННОТАЦИЯ

В данном тезисе освещаются биоэкологические особенности, среда обитания, этология, закономерности распространения и практическое значение видов змей, встречающихся на территории Узбекистана. Разнообразие территории нашей республики, состоящей из пустынных, предгорных и горных регионов, создало условия для формирования различных экологических групп пресмыкающихся, в частности змей. В исследовании проанализированы питание, репродуктивный процесс, сезонная активность, географическое распространение, а также значение змей в медицине и сельском хозяйстве. Кроме того, обоснована необходимость охраны некоторых видов.

### ABSTRACT

This thesis highlights the bio-ecological characteristics, habitats, ethology, distribution patterns, and practical significance of snake species found in Uzbekistan. The diversity of the republic's territory, comprising desert, foothill, and mountainous regions, has enabled the formation of various ecological groups of reptiles, particularly snakes. The study analyzes the feeding, reproductive processes, seasonal activity, and geographical distribution of snakes, as well as their importance in medicine and agriculture. Furthermore, the necessity of conserving certain species is substantiated.

**Kalit soʻzlar:** ilonlar, bioekologiya, gerpetofauna, tarqalish, zaharli ilonlar, ekologiya, Oʻzbekiston.

### Kirish

Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoning tabiiy sharoiti jihatidan murakkab va xilma-xil hududlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat hududida Qizilqum choʻli, Ustyurt platosi, Amudaryo va Sirdaryo vodiylari, Fargʻona vodiysi, Hisor va Zarafshon togʻ tizmalari kabi turli landshaftlar mavjud. Bunday tabiiy xilma-xillik hayvonot dunyosining boy tarkibini egallagan. Asosan, sudralib yuruvchilar sinfi vakillari orasida ilonlar alohida ekologik va amaliy ahamiyatga ega.

Ilonlar tabiatda oziqa zanjirining muhim boʻgʻini boʻlib, ular kemiruvchilar, hasharotxoʻr mayda hayvonlar, kaltakesaklar va boshqa organizmlar sonini tartibga soladi. Shu bilan birga, ilonlar yirtqich qushlar, tulki, boʻrsiq va boshqa hayvonlar uchun oziqa manbai ham hisoblanadi. Asosan, ular ekotizim barqarorligini saqlashda muhim oʻrin tutadi.

Oʻzbekiston hududida uchraydigan ayrim zaharli ilonlar inson salomatligi uchun xavf yaratadi. Ayniqsa, qishloq xoʻjaligi ishlari olib boriladigan hududlarda, choʻl va togʻ oldi mintaqalarida ilonlar bilan toʻqnashuv ehtimoli yuqori darajada boʻladi. Shu sababli ilonlarning bioekologik xususiyatlarini oʻrganish, tarqalish hududlarini aniqlash va amaliy ahamiyatini baholash dolzarb ilmiy yoʻnalishlardan biridir.

### Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Mazkur ishning asosiy maqsadi Oʻzbekiston hududida uchraydigan ilon turlarining bioekologik xususiyatlari, geografik tarqalish qonuniyatlari va inson hayotidagi amaliy ahamiyatini ilmiy tahlil qilishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

- Oʻzbekiston hududida uchraydigan asosiy ilon turlarini aniqlash;
- Ularning yashash muhiti va ekologik moslanishlarini tavsiflash;
- Mavsumiy faolligi va koʻpayish biologiyasini oʻrganish;
- Hududiy tarqalish qonuniyatlarini yoritish;
- Inson hayoti va xoʻjaligidagi amaliy ahamiyatini baholash.

### Asosiy qism

#### Oʻzbekiston hududida uchraydigan ilon turlari

Respublikamiz hududida ilonlarning 20 ga yaqin turi uchraydi. Ular Colubridae, Viperidae va Elapidae oilalariga mansub boʻlib, zaharli va zaharsiz turlarga boʻlinadi. Zaharli ilonlarga gyurza (*Macrovipera lebetina*), Oʻrta Osiyo kobrasi (*Naja oxiana*), qalqontumshuq ilon (*Echis carinatus*) kiradi. Ushbu turlar asosan janubiy hududlar, choʻl zonalari, toshloq yerlarda hamda togʻ etaklarida uchraydi.

Zaharsiz ilonlarga suv iloni (*Natrix tessellata*), sariq ilon (*Elaphe dione*), qum bo‘g‘ma iloni (*Eryx miliaris*), qora ilon va boshqa turlar kiradi. Ular asosan suv havzalari yaqinida, ekinzorlar atrofida, adir va o‘rmonzor hududlarda yashaydi.

### 1.1. Zaharli ilonlar



Gyurza  
(*Macrovipera lebetina*)



O‘rta Osiyo kobrasi  
(*Naja oxiana*)



Qalqontumshuq ilon  
(*Echis carinatus*)

### 1.2. Zaharsiz ilonlar



Suv iloni  
(*Natrix tessellata*)



Sariq ilon  
(*Elaphe dione*)



Qum bo‘g‘ma iloni  
(*Eryx miliaris*)

## Ilonlarning bioekologik xususiyatlari

Ilonlar sovuqqonli hayvonlar bo‘lib, ularning tana harorati tashqi muhitga bog‘liq. Shu sababli ularning faolligi havo haroratiga qarab keskin o‘zgaradi. Bahor faslida havo isishi bilan ilonlar qishki uyqudan chiqadi va faol hayot tarzini kechira boshlaydi. Yoz mavsumida yuqori harorat sababli ko‘pchilik turlar ertalab va kechqurun faol bo‘ladi, kunduz kunlari esa pana joylarda yashirinadi. Qish oylarida esa ular tosh yoriqlari, kemiruvchilar inlari, yer osti bo‘shliqlari yoki daraxt ildizlari orasida qishlaydi. Ayrim hollarda bir necha tur individ bir joyda qishlashi kuzatiladi. Ilonlarning oziqlanish spektri turiga qarab turli xil bo‘ladi. Asosan ular sichqon, kalamush, yumronqoziq, kaltakesak, qurbaqa, qush bolalari va tuxumlari bilan oziqlanadi. Suv ilonlari baliq va amfibiyalarni tutadi. Gyurza singari yirik turlar esa kattaroq o‘ljalari bilan oziqlanadi. Ko‘payishi bo‘yicha ilonlar tuxum qo‘yuvchi va tirik tug‘uvchi turlarga bo‘linadi. Kobralar tuxum qo‘yadi, ayrim vipera vakillari esa tirik bola tug‘adi. Ko‘payish davri asosan bahor oxiri va yoz boshlarida bo‘ladi.

## Tarqalish qonuniyatlari

Ilonlarning tarqalishi hududning iqlimi, rel'efi, oziqa bazasi va yashirinadigan areallar mavjudligiga bog'liq. O'zbekiston hududida ularning tarqalishi quyidagicha bo'ladi:


**Cho'l hududlari** – Qizilqum, Ustyurt platosi, Buxoro va Navoiy viloyatlarida qum bo'g'ma iloni, qalqontumshuq ilon, ayrim cho'l kolubridlari uchraydi.

**Vodiy va adir hududlari** – Farg'ona vodiysi, Toshkent vohasi, Zarafshon vodiysida sariq ilon, suv iloni va boshqa zaharsiz turlar keng tarqalgan.

**Tog' oldi va tog' hududlari** – Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand va Jizzax viloyatlarining tog'li qismlarida gyurza, kobra va boshqa turlar uchraydi.

**Suv havzalari atrofi** – Amudaryo, Sirdaryo, Chirchiq, Zarafshon daryolari hamda ko'llar yaqinida suv ilonlari ko'p kuzatiladi.

Tarqalishga antropogen omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Sug'oriladigan yerlarning kengayishi, tabiiy hududlarning qisqarishi, pestitsidlar qo'llanishi va urbanizatsiya yani shaharlashuv ayrim ilon turlarining sonini kamaytirmoqda.



## Inson hayotidagi amaliy ahamiyati

Ilonlarning inson hayotidagi ahamiyati ijobiy va salbiy tasiri mavjud .

### Ijobiy ahamiyati

Birinchidan, ilonlar qishloq xo'jaligi zararkunandalari bo'lgan kemiruvchilar sonini keskin kamaytiradi. Bu esa don, paxta, sabzavot va boshqa ekinlarni saqlashda

asosiy rol o‘ynaydi. Ikkinchidan, ilon zaharidan tibbiyotda keng qo‘llaniladi. Uning tarkibidagi biologik faol moddalar qon ivishini boshqaruvchi preparatlar, og‘riq qoldiruvchi vositalar va nevrologik kasalliklarni davolashda foydalaniladi. Uchinchidan, ilonlar ilmiy tadqiqotlarda, toksikologiya, farmakologiya va zoologiya sohalarida eng kerakli obyekt hisoblanadi.

### **Salbiy ahamiyati**

Ayrim zaharli turlar chaqqanida inson salomatligi uchun xavf yaratadi. Gyurza va kobra zahri ayniqsa kuchli ta’siri mavjud. O‘z vaqtida tibbiy yordam ko‘rsatilmasa og‘ir asoratlar kuzatilishi mumkin. Shu sababli aholi o‘rtasida ilonlardan ehtiyot bo‘lish qoidalari, birinchi yordam ko‘rsatish usullari va xavfsizlik choralarini targ‘ib qilish muhimdir.

### **Ilonlarni muhofaza qilish masalalari**

So‘nggi yillarda ayrim ilon turlari tabiiy yashash joylarining qisqarishi sababli kamayib bormoqda. Noqonuniy ovlash, antropogen omillar yani odamlar tomonidan qo‘rqib o‘ldirilishi va ekologik muhitning buzilishi ularga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun noyob turlarni muhofaza qilish, qo‘riqxonalar hududida saqlash va ekologik madaniyatni oshirish lozim.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston hududida uchraydigan ilonlar mamlakat biologik xilma-xilligining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning bioekologik xususiyatlari yashash muhitiga moslashgan bo‘lib, cho‘l, vodiy, tog‘ oldi va suv havzalari hududlarida turlicha namoyon bo‘ladi. Ilonlar kemiruvchilar sonini boshqarish, oziqa zanjirini saqlash hamda tibbiyotda qo‘llanilishi bilan katta amaliy ahamiyati mavjud. Shu bilan birga, zaharli turlar inson salomatligi uchun xavf tug‘dirishi sababli profilaktik choralar ko‘rish lozim. Ilonlarning tarqalishi va ekologiyasini chuqur o‘rganish, noyob turlarni muhofaza qilish hamda aholi o‘rtasida ekologik tushuntirish ishlarini kuchaytirish hozirgi vaqtning dolzarb vazifalaridan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Bogdanov O.P. O‘rta Osiyo sudralib yuruvchilari faunasi. Toshkent.
2. Shernazarov E. O‘zbekiston gerpetofaunasi va ekologiyasi. Samarqand.
3. Rustamov A.K. Zoologiya asoslari. Toshkent.
4. O‘zbekiston Qizil kitobi. Toshkent, yangi nashr.